

PIRLS XALQARO TADQIQOTI VA UNING TAKOMILLASHUVI

Safoyeva Muharram va G'aybullayeva Surayyo

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabining

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study–TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

Kalit so'zlar; PIRLS, baholash tizimi, ta'lim, tarbiya, o'qish, o'rganish, zamonaviy o'zgarishlar.

Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnomalar hamda o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashdagi o'zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ayni shu an'anani davom ettiradi. O'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lim olishdagi imkoniyatlari haqidagi so'rovnoma ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Har bir o'tkaziladigan PIRLS tadqiqoti sikli bilan yuzaga keladigan o'zgarishlarga hamohang tarzda PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotini o'tkazishda yozma shakldagi baholash daftarlari o'rniga raqamli vositalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Taxminan 50 foiz ishtirokchi mamlakatlarda PIRLS xalqaro tadqiqoti kompyuterlar yordamida o'quvchilarga uzluksiz tarzda matnlarni o'qish va savollarga javob berish imkonini beruvchi sodda va zamonaviy interfeyslardan foydalaniladi.



Rang-barang matnlar o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi uchun mo'ljallangan bo'lib, shu bilan birga natijalarni hisoblashni yengillashtirish maqsadida yangi topshiriqlardan foydalaniladi. Raqamli PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti PIRLS tadqiqotining boshqarilish jarayonini soddalashtirilishiga imkon beruvchi onlayn baholash tizimi orqali boshqariladi va o'quvchilarga topshiriqlar onlayn tarzda taqdim etiladi (nashr qilingan topshiriqlar va baholash daftarlari ko'rinishida berilmaydi).

Bu esa ePIRLS tadqiqotining raqamli PIRLS tadqiqoti bilan integrallashuviga imkon berib, ePIRLS tadqiqoti qo'shimcha tekshirishlarni oldini oladi. Bundan tashqari, raqamli PIRLS 2021 tadqiqotida baholash mezonlariga muvofiqlashtirilishi mumkin bo'lgan ayrim imkoniyatlarni ham o'z ichiga oladi. Kompyuter yordamida o'tkaziladigan raqamli PIRLS 2021 tadqiqotida PIRLS tadqiqoti va PIRLS o'qish savodxonligi bo'yicha berilgan, murakkablik darajasi uncha yuqori bo'lmagan matnlar umumlashtirilib, PIRLS 2021 baholash tadqiqotining murakkablik darajasi ishtirokchi mamlakatlarda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga muvofiqlashtiriladi.

2016-yilgi PIRLS xalqaro tadqiqoti va PIRLS o'qish savodxonligi tadqiqoti bo'yicha tuzilgan matnlarning murakkablik darajasini inobatga olib hamda o'qish savodxonligi bo'yicha yangidan tuzib chiqilayotgan matnlarning murakkablik darajasini saqlab qolgan holda yagona PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti barcha ishtirokchi mamlakatlarda yuqori, o'rtacha va past o'qish salohiyatiga ega o'quvchilar bilimni baholash imkonini yaratadi.

Har bir baholash sikli o'tkazilishi bilan PIRLS tadqiqotlari qamrov doirasining yangilab borilishi ishtirokchi mamlakatlarga o'zlarining yangidan-yangi g'oyalari hamda ularning o'quv dasturlari, standartlari, qamrov doiralari va yo'riqnomalari haqida so'nggi ma'lumotlarni o'rtoqlashish imkonini beradi. Bu esa qamrov doiralarini ta'limiy jihatdan mos bo'lishiga sharoit yaratib, har bir o'tkaziladigan baholash jarayonlarining bir-biriga bog'liqligini oshiradi va qamrov doiralari, topshiriqlar hamda tartiblarni yanada takomillashishiga xizmat qiladi. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida qamrov doiralari PIRLS 2021 ensiklopediyasida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatmalar, o'quv tadqiqoti va ishtirokchi mamlakatlardan tanlab olingan milliy tadqiqot koordinatorlari (NRC) tomonidan berilgan taqrizlar yordamida to'plangan ma'lumotlardan foydalanib yangilanadi.



PIRLS 2021 ekspertlar qo'mitasi, o'qish savodxonligini rivojlantirish guruhi (Reading Development Group, RDG) va so'rovnomalarni tuzuvchi guruh (Questionnaire Development Group, QDG) ham o'zlarining muhim g'oya va yo'nalishlari bilan yaqindan yordam berdi. Qamrov doiralari chop etilishidan avval milliy tadqiqot koordinatorlari va ekspertlar guruhi tomonidan qayta ishlab chiqildi va ko'zdan kechirildi. IEA xalqaro assotsiatsiyasining TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi mazkur jarayonga yaqindan yordam bergan barcha ishtirokchilarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda PIRLS xalqaro tadqiqoti o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlari, yangidan-yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Adabiyotlar

- 1 Roid, G. & Barram, R. (2004). Essentials of Stanford–Binet Intelligence Scales (SB5) Assessment. Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons, Inc.
- 2 von Davier, M., Cho, Y., & Pan, T. (2019) Effects of Discontinue Rules on Psychometric Properties of Test Scores. Psychometrika, vol. 84, no. 1, 147–163. <https://doi.org/10.1007/s11336-018-09652-3>
- 3 Yamamoto, K., Khorramdel, L., & von Davier, M. (2013) Chapter 17: Scaling PIAAC Cognitive Data. In: Technical Report of the Survey of Adult Skills (PIAAC). Available at: http://www.oecd.org/site/piaac/_Technical%20Report_17OCT13.pdf
- 4 Yan, D., von Davier, A., & Lewis, L. (2014; Eds.). Computerized multistage testing: Theory and applications (pp. 3–20). New York, NY: CRC Press.